UO‘K: 811.111'37:008+811.512.133'37:008

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on philological sciences

Lapasov Nizomiddin Shakarboyevich
Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda tolerantlik konseptining lingvokulturologik aspekti.....5

Лапасов Низомиддин Шакарбоевич
Лингвокультурологический аспект концепта толерантности в художественных текстах на английском и узбекском языках.....23

Lapasov Nizomiddin Shakarboyevich
Linguocultural aspect of the concept of tolerance in literary texts in English and Uzbek.....47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....51

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

LAPASOV NIZOMIDDIN SHAKARBOYEVICH

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BADIIY MATNLARDA TOLERANTLIK KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

CamScanner yordamida skanerlangan

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2025.1.PhD/Fil5707 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mo'minova Aziza Arslonovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Siddikova Iroda Abduzuxurovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Mirsanov G'aybullo Kulmurodovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti.**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 17 » noyabr soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92, e-mail: www_uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1266 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 26 » oktabr kuni tarqatildi.

(2026-yil « 26 » oktabrdagi 30 - raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Nasirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

J.A.Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy tilshunoslikda tolerantlik konseptining turli til va madaniyatlardagi namoyon bo'lish xususiyatlarini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunda uning lingvomadaniy jihatlarini ochib berish, milliy-madaniy o'ziga xoslik va universal qirralarini chog'ishtirma tahlil qilish muhim hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyoti jarayonida tolerantlik konseptining turli tillardagi semantik maydoni, konseptual strukturasi va pragmatik funksiyalarini chog'ishtirma yo'nalishda o'rganish orqali tillarning lingvomadaniy xususiyatlari hamda konseptual tafakkur shakllarini kengroq ochib berish hozirda lingvomadaniyatshunoslik ehtiyoj sezayotgan g'oyat muhim masalalardandir.

Jahon tilshunosligida tolerantlik konseptini tadqiq etish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Uning turli lingvomadaniy kontekstlardagi ifodalanish shakllarini ochib berish hamda badiiy matnlarda konseptning milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon etuvchi lisoniy mexanizmlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv sharoitida tolerantlik konseptining xalqaro dialog va milliy madaniy qadriyatlarni muvozanatlashtirishdagi o'rnini aniqlash, tillarda uning lingvomadaniy voqelanish mexanizmlari va leksik-semantik salohiyatini tadqiq etish tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

O'zbek tilshunosligida tolerantlik konsepti, xususan, uning badiiy matnlardagi lingvomadaniy xususiyatlari va ingliz tili bilan qiyosiy tahlili yetarlicha o'rganilmagan mavzulardan biri sifatida qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash" va "Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish" [1] ta'kidlanganidek, tolerantlik milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvida muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan, ingliz va o'zbek tillarida tolerantlik konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini chog'ishtirish, ularda namoyon bo'luvchi umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlash konseptologiyani takomillashtirish, til va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni ochib berish hamda milliy tilshunoslik nazariyasini boyitish, madaniyatlararo muloqot amaliyotini yaxshilash va mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

CamScanner yordamida skanerlangan

“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim -tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-noyabrdagi PF 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 26-maydagi PF-98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaror va farmonlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslikda tolerantlik konsepti masalalari turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Lingvokulturologik yo‘nalishda tolerantlik konsepti Y.S. Sumina, S.G. Rastatuyeva, S.N. Bogatireva, D.S. Obukauskayte [2] kabi olimlarning ishlarida turli tillarda tadqiq etilgan. Jumladan, Y.S. Sumina [3] tolerantlikni fenomen darajasidan lingvokulturologik konseptga o‘tish jarayonida falsafiy-insoniy qadriyatlar, madaniy stereotiplar va ijtimoiy-ma’naviy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini asoslagan. S.V. Rastatuyeva [4] rus tili materialida konseptning lingvokulturologik modelini rekonstruksiya qilib, uning assotsiativ maydoni, aksiologik komponenti va milliy-madaniy semantikasini o‘rgangan. S.N. Bogatireva [5] ispan va rus lingvomadaniyatlarini solishtirish orqali tolerantlik konseptining tarixiy-madaniy qatlamlardagi farqlanishi, madaniy va konseptual belgilarining transformatsiyasini tadqiq etgan.

Kognitiv-semantik yo‘nalishda O.V. Kazachenko, G.A Ivankina, I.A. Dolgova, M.S. Lunsova, Y.S. Sumina, V.A. Voropayeva [6] kabi tadqiqotchilar tomonidan konseptning semantik tuzilishi, leksik-semantik maydoni va kognitiv xususiyatlari o‘rganilgan. I.A. Dolgova [7] “Sabr” konseptual maydonini ingliz va rus tillarida qiyosiy tahlil qilgan. M.S. Lunsova [8] “do‘stlik-tinchlik-dushmanlik” gradiyent-konseptini tadqiq etgan.

Diskursiv-pragmatik yo‘nalishda tolerantlik konseptining turli diskurs turlaridagi namoyon bo‘lishi G.S. Melnik, R.S. Galustyan, G.I. Marjani, O.Y. Ivanova, N.A. Kalevich, M.Y. Xromsova [9] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. G.S. Melnik [10] siyosiy jurnalistika diskursida tolerantlik/intolerantlik kategoriyalarini tahlil qilgan. G.I. Marjani [11] “Islom Nusantara” konsepti doirasida diniy tolerantlikni tadqiq etgan.

Xalqaro tadqiqotlarda tolerantlik konsepti M.Hjerm, G.Corneo, O.Jeanne, S.Aslan, B.Aybek [12] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. M.Hjerm [13] va

[2] Сумина Е.С. Толерантность: от феномена к лингвокультурному концепту. – Екатеринбург, 2007. – 277 с.; Растатуева С.Г. Репрезентация концепта “Толерантность” в русском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Елец, 2008. – 19 с.; Аболин Б.И. Концепт «толерантность» в когнитивно-дискурсивном аспекте: Дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2009. – 229 с.; Богатырева С.Н. Диахронический аспект концепта толерантность в разных лингвокультурах: на материале испанского и русского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Пятигорск, 2010. – 33 с.; Маринина Г.И. Полевая структура концепта “толерантность” в немецком, английском, русском и кабардино-черкесском языках // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2016. – № 8 (62). – С. 129-131; Хлопова А.И. Содержание понятия “Toleranz” в немецкой лингвокультуре // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. – 2023. – Вып. 2 (870). – С. 57-65; Тахтарова С.С. Концепт “Toleranz” в немецкой лингвокультуре // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2008. – № 1 (014). – С. 64-71; Маркова Е.М. Особенности концепта толерантность в русской и словацкой лингвокультурах // Русский язык в поликультурном мире: Сб. науч. статей V Международного симпозиума, включенного в программу Международного фестиваля “Великое русское слово”. – Симферополь: Крымский федеральный университет им. В.И. Вернадского, 2021. – С. 71-80; Базарбаева А.С., Алибекова К.Е. Концепт толерантность в свете ассоциативного эксперимента // Журнал Известия КазУМОиМЯ имени Абылай хана. Серия “Филологические науки”. – 2024. – Т. 74, № 3. – С. 1-17.

[3] Сумина Е.С. Толерантность: от феномена к лингвокультурному концепту. – Екатеринбург, 2007. – 277 с.

[4] Растатуева С.Г. Репрезентация концепта “Толерантность” в русском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Елец, 2008. – 19 с.

[5] Богатырева С.Н. Диахронический аспект концепта толерантность в разных лингвокультурах: на материале испанского и русского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Пятигорск, 2010. – 33 с.

[6] Казаченко О.В., Иванкина Г.А. Субъектив киймат “толерантлик” ўзлаштирилган дунёкараш категорияси сифатида // МДПУ Ахборотномаси. Серия: Филология. Тил назарияси. Тил таълими. – 2021. – № 3 (43). – Б. 60-69; Долгова И.А. Концептуальное поле “терпение” в английской и русской лингвокультурах: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – 30 с.; Лунцова О.М. Градиент-концепт “дружба-мир-вражда” в русской и английской лингвокультурах: на материале лексики и фразеологии: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2008. – 30 с.; Сумина Е.С. Толерантность: от феномена к лингвокультурному концепту: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2007. – 22 с.; Воропаева В.А. Сопоставительная характеристика английских, немецких и русских паремий и фразеологизмов, выражающих толерантность: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 2007. – 23 с.

[7] Долгова И.А. Концептуальное поле “терпение” в английской и русской лингвокультурах: Автореф. дисс. ..канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – 30 с..

[8] Лунцова О.М. Градиент-концепт “дружба-мир-вражда” в русской и английской лингвокультурах: на материале лексики и фразеологии: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2008. – 30 с..

[9] Мельник Г.С. Толерантность и интолерантность в политической журналистике (на примере СМИ Китая): Дисс. ...канд. полит. наук. – СПб., 2022. – 318 с.; Галустян Р.С. Толерантность как основа мировых религий (ислам и христианство) // Теология и богословие: сотрудничество для сохранения и укрепления российского духовного наследия: Матер. Междунар. образовательной конф. – Уфа, 2022. – Т. 2. – С. 240-244; Маржани Г.И. The Evolution of Islam Nusantara: Tracing the Origins and Examining Contemporary Manifestations of Pluralism and Tolerance // International Journal of Nusantara Islam. – 2023. – Vol. 11, Issue 1. – P. 121-135; Иванова О.Ю., Калевич Н.А. Культурный код как инструмент прескриптивных моделей межкультурной коммуникации (к вопросу о перспективах российско-пакистанского межкультурного взаимодействия) // Русский язык и культура в зеркале перевода: Матер. Междунар. науч. конф. – Москва, 2023. – С. 214-219; Хромцова М.Ю. Современные проекты межкультурной и межрелигиозной теологии // Вестник Русской христианской гуманитарной академии. – 2020. – Т. 21, № 1. – С. 218-231.

[10] Мельник Г.С. Толерантность и интолерантность в политической журналистике (на примере СМИ Китая): Дисс. ...канд. полит. наук. – СПб., 2022. – 318 с.

[11] Маржани Г.И. The Evolution of Islam Nusantara: Tracing the Origins and Examining Contemporary Manifestations of Pluralism and Tolerance // International Journal of Nusantara Islam. – 2023. – Vol. 11, Issue 1. – P. 121-135.

[12] Hjerm M., et al. A new approach to the study of tolerance: Conceptualizing and measuring acceptance, respect, and appreciation of difference // Social Indicators Research. – 2020. – Vol. 147, Issue 3. – P. 897-919; Corneo G., Jeanne O. A Theory of Tolerance // Discussion Paper. – 2009. – C. 1-30; Aslan S., Aybek B. Testing the Effectiveness of Interdisciplinary Curriculum-Based Multicultural Education on Tolerance and Critical Thinking Skill // International Journal of Educational Methodology. – 2020. – Vol. 6, Issue 1. – P. 43-55.

[13] Hjerm M., et al. A new approach to the study of tolerance: Conceptualizing and measuring acceptance, respect, and appreciation of difference // Social Indicators Research. – 2020. – Vol. 147, Issue 3. – P. 897-919.

CamScanner yordamida skanerlangan

hammualliflar tolerantlikni o‘rganishga yangicha yondashuvni taklif etgan. G.Corneo va O.Jeanne [14] tolerantlikning ramziy qadriyatlar nazariyasini ishlab chiqqan.

O‘zbek tilshunoslikda tolerantlik konseptining lingvokulturologik aspektlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. S.Xakberdiyeva [15] paremiyalarda oilaviy qadriyatlar orqali tolerantlik konseptini o‘rgangan bo‘lsa-da, ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda tolerantlik konseptining lingvokulturologik aspektlarini kompleks tadqiq etishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Mavjud tadqiqotlar asosan tolerantlik konseptining umumiy xususiyatlarini, alohida tillarda semantik maydonini yoki diskursiv jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Biroq, ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida tolerantlik konseptining lingvokulturologik aspektlarini qiyosiy-tipologik metodda kompleks tadqiq etish, uning verballashuv vositalari, milliy-madaniy xususiyatlari va lingvokulturologik o‘xshash hamda farqli tomonlarini aniqlash borasida maxsus izlanishlar olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Rejalashtirilayotgan dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasining “Tarjimashunoslik va tarjima didaktikasining dolzarb muammolarini tadbiq etish” istiqbolli tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismidir.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda tolerantlik konseptining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash va uning universal hamda milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini ochib berishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun dissertasion tadqiqot oldiga quyidagi **vazifalar** qo‘yildi:

ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida tolerantlik konseptining leksik-semantik reprezentatsiyasini tahlil qilish va yadro-periferiya tuzilishining miqdoriy modelini aniqlash;

badiiy matnlarda tolerantlik konseptining mazmuniy tarkibi va tuzulishini tavsiflash;

chog‘ishtirilayotgan tillarda tolerantlik konseptining lingvokulturologik asimmetriya tipologiyasini aniqlash va madaniy o‘ziga xoslikka ko‘ra tasniflash;

tolerantlik konseptining ingliz va o‘zbek badiiy adabiyotidagi metaforik va ramziy reprezentatsiyasini o‘rganish;

ingliz va o‘zbek tillarida tolerantlik konseptining lingvokulturologik xususiyatlariga madaniy moslashuvning ta’sirini aniqlash.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida tolerantlik konsepti voqelangan til birliklari xizmat qiladi.

Tadqiqot predmeti sifatida ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida voqelangan tolerantlik konseptining lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

[14] Corneo G., Jeanne O. A Theory of Tolerance // Discussion Paper. – 2009. – C. 1-30.

[15] Хакбердиева С. Отражение семейных ценностей в паремиях русского и узбекского языков // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2, № 3. – С. 162-168.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida lingvistik tavsiflash metodi, konseptual tahlil, chog‘ishtirma metod, lingvokulturologik tahlil metodi, statistik tahlil metodidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek badiiy matnlari asosida tolerantlik konseptining yadro-periferiya tuzilishining miqdoriy modeli ingliz tilidagi semantik yadroning “kind” (22,19%), “friends/friend” (17,87%), “understand/understood” (14,12%) leksemalari, o‘zbek tilida esa “umid” (14,93%), “adolat” (10,23%), “yordam” (8,10%) so‘zlari bilan ifodalanishi hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nominatsiyalar (“tolerance”/“tolerantlik”)ning korpusdagi ulushi 1% dan kamligi statistik tahlil natijalari orqali isbotlangan;

tolerantlik konseptining mazmuniy tarkibida madaniy kontekstga muvofiq o‘zgaruvchi kognitiv (farqlarni anglash), aksiologik (empatiya va insoniy qadriyatlar) va pragmatik (muloqot strategiyalari) komponentlardan iborat universal tuzilish modeli konseptual-semantik tahlil asosida ishlab chiqilgan;

tolerantlik konseptining lingvokulturologik asimmetriya tipologiyasi asosida uning madaniy o‘ziga xosligiga ko‘ra individualistik (ingliz tilida“acceptance”, “diversity”, “individual rights” kabi nominatsiyalar) va kollektivistik (o‘zbek tilida “sabr”, “shafqat”, “jamoaviy birdamlik” kabi nominatsiyalar) tiplari tavsiflangan holda ingliz adabiyotida tashqi faol vektor – ijtimoiy-siyosiy kurash, postkolonial migratsiya va tengsizlikka qarshi harakatlar, o‘zbek adabiyotida esa ichki uyg‘unlashtiruvchi vektor – ma’naviy-axloqiy tamoyillar, intizom va falsafiy izlanishlar orqali namoyon bo‘lishi aniqlangan;

metaforik va ramziy reprezentatsiyasini chog‘ishtirish orqali tolerantlik konseptining ingliz badiiy adabiyotida ijtimoiy o‘zgarishlar omili sifatida erkinlik, tenglik va adolat kabi universal qadriyatlar bilan uzviylikda (bridge”, “light”, “open door”) ifodalanishi, o‘zbek adabiyotida esa ma’naviy-ma’rifiy uyg‘unlik va jamoaviy hamjihatlikka tayangan holda (“og‘och”, “devor”, “duo”) voqelanishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida tolerantlik konseptining leksik-semantik reprezentatsiyasi asosida yadro-periferiya tuzilishining miqdoriy modeli ishlab chiqilgan.

Tolerantlik konseptining kognitiv, aksiologik va pragmatik komponentlarini qamrab olgan universal model taklif etilgan.

Konseptning milliy-o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun lingvokulturologik asimmetriya tipologiyasi ishlab chiqilgan.

Ingliz va o‘zbek adabiyotida tolerantlik konseptining metaforik va ramziy reprezentatsiyasi chog‘ishtirma tahlil orqali tasniflangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natija va xulosalarni isbotlovchi ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ularning dissertatsiyaning nazariy jihatiga muvofiqligi, til materiallari hajmining nufuzliligi, misollar tahlilining ilmiy-metodologik nuqtai-nazardan asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda tolerantlik konseptining universal va milliy-madaniy o‘ziga xosliklari ochib berilganligi, uning leksik-semantik reprezentatsiyasi tavsiflanganligi, yadro-periferiya tuzilishi miqdoriy modellashtirilganligi, shuningdek, tolerantlik konseptining kognitiv, aksiologik va pragmatik komponentlaridan iborat universal tuzilishi aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari va xulosalaridan oliy o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonida ma’ruza va seminarlar, umumiy va qiyosiy tilshunoslik, leksikologiya, stilistika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya fanlari bo‘yicha maxsus kurslarni ishlab chiqishda, dissertatsiyalar, monografiyalar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yozishda, maxsus lug‘atlar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda tolerantlik konseptining lingvokulturologik aspektini tadqiq etish yuzasidan olingan ilmiy-nazariy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek badiiy matnlari asosida tolerantlik konseptining yadro-periferiya tuzilishining miqdoriy modeli ingliz tilidagi semantik yadroning “kind” (22,19%), “friends/friend” (17,87%), “understand/understood” (14,12%) leksemalari, o‘zbek tilida esa “umid” (14,93%), “adolat” (10,23%), “yordam” (8,10%) so‘zlari bilan ifodalanishi hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nominatsiyalar (“tolerance”/“tolerantlik”)ning korpusdagi ulushi 1% dan kamligi statistik tahlil natijalari orqali isbotlangani hamda tolerantlik konseptining mazmuniy tarkibida madaniy kontekstga muvofiq o‘zgaruvchi kognitiv (farqlarni anglash), aksiologik (empatiya va insoniy qadriyatlar) va pragmatik (muloqot strategiyalari) komponentlardan iborat universal tuzilish modeli konseptual-semantik tahlil asosida ishlab chiqilganiga oid xulosalardan 2024-2025-yillarda amalga oshirilgan “Umumta’lim maktablarining 5-6 sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo‘llash metodikasi” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2025-yil 20-oktyabrdagi 01-09/469-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan monografiya va virtual resurslarni zamonaviy ilmiy ma’lumotlar va yangi adabiyotlar bilan mazmunan boyitishga xizmat qilgan;

tolerantlik konseptining lingvokulturologik asimmetriya tipologiyasi asosida uning madaniy o‘ziga xosligiga ko‘ra individualistik (ingliz tilida“acceptance”, “diversity”, “individual rights” kabi nominatsiyalar) va kollektivistik (o‘zbek tilida “sabr”, “shafqat”, “jamoaviy birdamlik” kabi nominatsiyalar) tiplari tavsiflangan holda ingliz adabiyotida tashqi faol vektor – ijtimoiy-siyosiy kurash, postkolonial migratsiya va tengsizlikka qarshi harakatlar, o‘zbek adabiyotida esa ichki uyg‘unlashtiruvchi vektor – ma’naviy-axloqiy tamoyillar, intizom va falsafiy izlanishlar orqali namoyon bo‘lishi aniqlangani xususidagi mulohazalardan IL662204405-raqamli “Eksperimental fonetik laboratoriya yaratish (xorijiy til misolida)” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 20-oktyabrdagi 11-25/113-son

ma’lumotnomasi). Natijada innovatsion loyiha doirasida yaratilgan resurslarni boyitishda muhim manba vazifasini bajargan;

metaforik va ramziy reprezentatsiyasini chog‘ishtirish orqali tolerantlik konseptining ingliz badiiy adabiyotida ijtimoiy o‘zgarishlar omili sifatida erkinlik, tenglik va adolat kabi universal qadriyatlar bilan uzviylikda (bridge”, “light”, “open door”) ifodalanishi, o‘zbek adabiyotida esa ma’naviy-ma’rifiy uyg‘unlik va jamoaviy hamjihatlikka tayangan holda (“og‘och”, “devor”, “duo”) voqelanishi dalillanganiga oid xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi xalqaro adabiy aloqalar va badiiy tarjima bo‘limi amalga oshirayotgan loyihalarda, Respublika yosh ijodkorlarining “Zomin” seminarining “Badiiy tarjima” sho‘basida o‘tkazilgan mahorat darslarida va tarjimonlar forumida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 26-sentyabrdagi 01-03/395-son ma’lumotnomasi). Natijada taklif qilingan tavsiya va xulosalar tolerantlikka oid so‘zlar tarjimasida milliy-madaniy mazmunni to‘g‘ri yetkazish va tarjimonlik mahoratini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi izohlangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, metodlari, tadqiqot ob’yekt va predmeti ochib berilgan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobasiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertasiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tolerantlik konseptining lingvomadaniy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tolerantlikning lingvistik hodisa sifatidagi nazariy jihatlari, uning zamonaviy tilshunoslikda o‘rganilish tendensiyalari ochib berilgan, madaniy kontekstning tolerantlik tushunchasi tabiatiga ta’siri batafsil ko‘rib chiqilgan, ushbu konseptning lingvokulturologik kategoriya sifatidagi vazifalari va uning zamonaviy tilshunoslikdagi tadqiqot yo‘nalishlari yoritilgan.

Tolerantlik tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda universal lingvokulturologik kategoriya sifatida o‘rganilib, u tilning madaniy-semantik tabiati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Lingvistik nuqtai nazardan, tolerantlik olamning

CamScanner yordamida skanerlangan

lisoniy manzarasining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, turli leksik, grammatik va pragmatik shakllarda ifodalanadi hamda qabul qilish, hurmat, tushunish kabi tushunchalar bilan bog‘liq leksik birliklar orqali namoyon bo‘ladi.

Tolerantlikning lingvistik mohiyati uning axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni ifodalash bilan bog‘liqligida o‘rganiladi. T.V. Petkova, Jon Lokk va Immanuil Kantning nazariy qarashlarini tahlil qilib, tolerantlikni plyuralizm, kelishuv, erkinlik va tenglik konseptlari bilan bog‘liq fenomen[16] sifatida ta’riflaydi. Buni M.P. Axidjakova va L.A. Donskova tadqiqotlari ham tasdiqlaydi – ular kommunikativ tolerantlikni nutq faoliyatining emotsional sohasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan hodisa[17] deb belgilaydilar.

Konseptning semantik tuzilishi muhim xususiyatlarga ega bo‘lib, G.I. Marinaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, tolerantlik konsepti asosida barcha tillarga xos bag‘rikenglik g‘oyasi yotadi, ammo semantik farqlar talqin tafsilotlarida namoyon bo‘ladi. Masalan, rus tilida markaziy sema “bag‘rikenglik”, ingliz tilida “ruxsat berish”, nemis tilida “boshqalar fikriga hurmat”, qabardin-cherkes tilida esa “nizosizlik” tushunchasi[18] ustuvor ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon tilshunosligida tolerantlik konseptini o‘rganish beshta asosiy yo‘nalishda amalga oshirilmoqda. Lingvokulturologik yo‘nalish konseptning turli til va madaniyatlardagi ifodalanish xususiyatlarini tadqiq etadi. A.S. Bazarbayeva va K.Ye. Alibekovalar qozoq tilida tolerantlik konseptining milliy-madaniy xususiyatlarini assosiativ eksperiment metodi orqali ochib berganlar[19]. Diskursiv-pragmatik yo‘nalish konseptning turli diskurs turlaridagi namoyon bo‘lishini o‘rganadi, bunda G.S. Melnikning siyosiy jurnalistika diskursidagi tadqiqotlari[20] alohida ahamiyatga ega.

Kognitiv-semantik yo‘nalish konseptning leksik-semantik maydonini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, G.I. Marinina tolerantlik konseptini to‘rt tilda qiyosiy o‘rganib, uning universal va milliy-madaniy komponentlarini aniqlagan[21]. Aksiologik yo‘nalish tolerantlik konseptining qadriyatlar tizimidagi o‘rnini tadqiq etadi, bunda Yu.V. Maslyanka va A.V. Suxininaning metodologik plyuralizm tamoyiliga asoslangan ishlari[22] ahamiyatli hisoblanadi. Lingvodidaktik yo‘nalish tolerantlik kompetensiyasini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirishga

[16] Petkova T.V. The Idea of Tolerance – John Locke and Immanuel Kant // Open Journal for Studies in Philosophy. – 2019. – 3(1). – P. 19.

[17] Ахиджакова М.П., Донскова Л.А. Эмотивность и коммуникативная толерантность в структуре эмоциональности художественного текста // Гуманитарные и социальные науки. – 2021. – № 3. – С. 69.

[18] Маринина Г.И. Немис, инглиз, рус ва кабардин-черкес тилларида “толерантлик” концептининг майдон тузилиши // Филология фанлар: Назария ва амалиет масалалари. – 2016. – № 8(62). – Б. 130.

[19] Базарбаева А.С., Алибекова К.Е. Концепт толерантность в свете ассоциативного эксперимента // Журнал Известия КазУМОиМЯ имени Абылай хана. Серия “Филологические науки”. – 2024. – Т. 74, № 3. – С. 1-17.

[20] Мельник Г.С. Толерантность и интолерантность в политической журналистике (на примере СМИ Китая): Дисс. ... канд. полит. наук. – СПб., 2022. – 318 с.

[21] Маринина Г.И. Полевая структура концепта “толерантность” в немецком, английском, русском и кабардино-черкесском языках // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2016. – № 8 (62). – С. 129-130.

[22] Маслянка Ю.В., Суханина А.В. Методологический плюрализм и тенденции развития современной аксиологии // Новые идеи в философии. – 2021. – № 8 (21). – С. 54-71.

yo‘naltirilgan bo‘lib, L.I. Chernov tolerantlikni madaniyatlararo savodxonlikning asosiy elementi[23] deb baholaydi.

Hozirgi zamon tilshunosligida tolerantlik konseptini o‘rganishning o‘ziga xos tendensiyalari kuzatilmoqda. Jumladan, fanlararo yondashuvning kuchayishi, milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash, diskursiv-pragmatik tahlilga e’tiborning ortishi, kognitiv-semantik tadqiqotlarning kengayishi, aksiologik jihatlarga alohida e’tibor qaratish, lingvodidaktik yo‘nalishning rivojlanishi, texnologik yondashuvlarning kuchayishi va globallashuv ta’sirining o‘rganilishi kabi yo‘nalishlar shakllanmoqda.

Tolerantlik konseptining lingvomadaniy kategoriya sifatidagi talqini alohida ahamiyatga ega ekanligi shu bilan belgilanadiki, bu konsept konseptual metaforalar, etalon vaziyatlar va madaniy shartlangan matnlar bilan bog‘liq bo‘lib, ham lisoniy, ham lisondan tashqari jihatlarni qamrab oladi. V.V. Krasnixning ta’kidlashicha, lingvomadaniy konseptlar madaniyat konseptosferasining bir qismi hisoblanib, uning asosiy qadriyatlarini namoyon etadi va madaniyatlararo muloqot uchun yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi[24].

Zamonaviy tilshunoslikda turli madaniyatlarda tolerantlikning ifodalanishi o‘ziga xos xususiyatlari ochib berishga katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, ingliz tilida tolerantlik ko‘pincha “diversity” va “respect” tushunchalari bilan bog‘lansa, o‘zbek madaniyatida esa mehmondo‘stlik va kattalarga hurmat obrazlari orqali ifodalanadi. S.S. Taxtarovaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, nemis lingvomadaniyatida tolerantlik qadriyat dominanti sifatida namoyon bo‘lib, “hurmat”, “sabr”, “tinchliksevarlik” kabi assosiatsiyalar bilan xarakterlanadi[25].

Diniy diskursda amalga oshirilgan G.I. Marjanining tadqiqotlari “Islom Nusantara” konseptida tolerantlikning asosiy komponent sifatida voqelanishini ko‘rsatadi. Bu indoneziya tolerantlik konsepsiyasi “Bhinneka Tunggal Ika” (xilma-xillikda birlik) qadriyatlariga asoslangan bo‘lib, uni boshqa islom an’analari orasida noyob qiladi[26].

Tolerantlik konseptining lingvomadaniy jihati uning o‘zgaruvchan xarakterida ham ko‘rinadi. Globallashuv sharoitida bu konsept yangi ma’no qirralarini kasb etmoqda, an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy tendensiyalarning uyg‘unlashuvi jarayonida til tizimida yangi ifoda vositalari paydo bo‘lmoqda. Tolerantlik nafaqat til birliklari orqali ifodalanuvchi tushuncha, balki madaniyatlararo muloqotni samarali amalga oshirishning samarali vositasi sifatida ham voqelanadi.

Shunday qilib, tolerantlik zamonaviy tilshunoslikning tadqiqot ob’yekti sifatida universal lingvokulturologik kategoriya hisoblanadi. Konseptning o‘ziga xos tuzilishi, turli tillarda ham universal, ham milliy-madaniy xususiyatlarni

[23] Чернов Л.И. Лингвокультурологическая трактовка понятия “Межкультурная грамотность” // Журнал по вопросам образования и межкультурного взаимодействия. – 2022. – № 1. – С. 5-6.

[24] Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: ИТДГК “Гнозис”, 2002. – С. 62.

[25] Тахтарова С.С. Концепт ‘Toleranz’ в немецкой лингвокультуре // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2008. – № 1 (014). – С. 69.

[26] Gustiana Isya Marjani. The Evolution of Islam Nusantara: Tracing the Origins and Examining Contemporary Manifestations of Pluralism and Tolerance // International Journal of Nusantara Islam. – 2023. – Vol. 11, № 1. – P. 182.

CamScanner yordamida skanerlangan

namoyon etishi, globallashuv sharoitida yangi ma'no qirralarini kasb etishi va madaniyatlararo muloqotda katta rol o'ynashi uning lingvomadaniy ahamiyatini belgilab beradi. Tolerantlik konsepti "o'zgachalik"ni tan olish, hurmat qilish va qabul qilishning lisoniy mexanizmlarini aks ettirib, kognitiv va emotsional jihatlarni mujassamlashtirgan holda til va madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida shakllantiriladi.

Dissertatsiyaning **"Ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda tolerantlik konseptining mazmuniy tarkibi va ifodalanishi"** deb nomlangan ikkinchi bobida mazkur konseptning badiiy matnlarda leksik-semantik vositalar orqali namoyon bo'lishi, turli badiiy obraz va ma'no qatlamlari orqali ifodalanishi tahlil etilgan. Shu bilan birga, tolerantlikning mazmuniy komponentlari, ularning ichki tuzilishi va o'zaro munosabatlari ko'rib chiqilib, konseptning badiiy nutqdagi xususiyatlari ochib berilgan.

Tolerantlik konsepti badiiy matnlarda til va madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan lingvomadaniy kategoriya sifatida voqelanadi. Ushbu konseptning mazmuniy tarkibi uning semantik maydoni, diskursiv ifodalanishi va madaniy kontekstdagi xususiyatlari bilan belgilanadi.

Tolerantlik konseptining badiiy matnlardagi mazmuniy tarkibini aniqlash uchun uning leksik-semantik ifodalanishini zamonaviy ingliz adabiyotidan Abdulrazak Gurnahning "By the Sea", Jon Steynbekning "The Grapes of Wrath", Mayya Endjelouning "I Know Why the Caged Bird Sings" va o'zbek adabiyotidan Nuridddin Ismoilovning "O'limga mahkum qilinganlar", Tohir Malikning "Shaytanat", Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" asarlari materialida miqdoriy va sifatiy jihatdan tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot natijasida aniqlandiki, tolerantlik konsepti ikkala tilda ham asosan to'g'ridan-to'g'ri nominatsiya orqali emas, balki maxsus leksik birliklar va metaforalar vositasida verballashadi.

Ingliz tilidagi asarlarda konseptning yadrosini mehribonlik, do'stlik va tushunish bilan bog'liq leksemalar tashkil etadi. Abdulrazak Gurnahning "By the Sea" romanida tolerantlik konsepti 347 marta qo'llanilgan leksemalar orqali voqelangan. Eng yuqori chastotaga ega birliklar: *kind* (77 marta, 22,19%), *friends/friend* (62 marta, 17,87%), *understand/understood* (49 marta, 14,12%) bo'lib, bular konseptning postkolonial migratsiya kontekstida insoniy iliqlik va anglash mexanizmi orqali namoyon bo'lishini anglatadi. Diqqatga sazovor jihat shundaki, "tolerance" va "tolerant" kabi to'g'ridan-to'g'ri nominativ leksemalar atigi 3 marta (0,86%) qo'llangan, ya'ni konsept amaliy harakatlar tili orqali voqelanadi.

Jon Steynbekning "The Grapes of Wrath" romanida tolerantlik konsepti 184 marta uchragan leksemalar orqali tasvirlangan. Bu yerda markaziy o'rinni *kind* (50 marta, 27,17%) va *help* (44 marta, 23,91%) leksemalari egallab, konseptning amaliy yordam va insoniy iliqlik nuqtasiga jamlanishini tasdiqlaydi. "*kind+kindness+gentle*" bloki yig'ma 59 marta (32,07%), "*help+helping+helps+support+aid*" esa 57 marta (30,98%) ulushga ega bo'lib, Steynbek asarida tolerantlik amaliy ko'mak va qo'llab-quvvatlash orqali kodlanishini bildiradi.

Mayya Endjelouning "I Know Why the Caged Bird Sings" romanida 249 marta qo'llanilgan leksemalardan *friends* (28 marta, 11,24%), *friend/help* (har biri 24 marta, 9,64%), *understand* (23 marta, 9,24%) kabi birliklar yetakchilik qiladi. Asarda jamoaviy yaqinlik semantikasi ("*friend(s)/friendship*" yig'indisi 56 marta, 22,49%) va anglash mexanizmi ("*understand/understood/understanding*" – 57 marta, 22,89%) ustuvorligini ko'rsatadi.

O'zbek tilidagi asarlarda tolerantlik konseptining leksik ifodalanishi milliy ma'naviy an'analar bilan chambarchas bog'liq. Nuridddin Ismoilovning "O'limga mahkum qilinganlar" romanida konsept 66 marta qo'llanilgan leksemalar orqali namoyon bo'lgan. Markazda *va'da* (15 marta, 22,73%), *umid* (9 marta, 13,64%) leksemalari turib, "*ishonch–va'da–umid*" uchligi jami 48,48% ulushni tashkil etadi. Bu tartib tolerantlikni avvalo "ishonchga asoslangan kelishuv" sifatida shakllantirishini bildiradi.

Tohir Malikning "Shaytanat" romanida konsept 938 marta qo'llanilgan keng leksik repertuar orqali voqelangan. Eng yuqori chastotaga ega birliklar: *umid* (140 marta, 14,93%), *adolat* (96 marta, 10,23%), *yordam* (76 marta, 8,10%) bo'lib, kriminal muhit sharoitida ham insoniylik qadriyatlarining saqlanishini aks ettiradi. Yadroni uch yo'nalish tashkil etadi: "kelajakka qarash" ustuni (*umid-va'da-ishonch* – 24,20%), me'yoriy-huquqiy kontur (*adolat-haq-insof* – 21,32%) va yarashuv-quvvatlash qatlami (*kechirim-shafqat-rahm* – 13,22%).

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanida tolerantlik 138 marta qo'llanilgan leksemalar bilan ifodalangan. Markaziy qatlamni "*yordam–do'st–umid*" uchligi belgilaydi (41,30% ulush).

Barcha tahlil qilingan asarlarda tolerantlik konseptining yadro-periferiya tuzilishi aniqlandi. Ikkala tilda ham yadro qatlamida "do'stlik", "ishonch", "yordam", "tushunish" kabi universal ma'nolar yetakchi o'rinni egallaydi. Biroq, periferiya qatlamlarida milliy-o'ziga xos yo'nalishlar kuzatiladi: ingliz matnlarida "acceptance", "peace", "welcome" kabi tushunchalar ko'proq qo'llanib, madaniyatdagi individual huquqlar va tinchlikka intilish qadriyatlarini aks ettirsa, o'zbek romanlarida "sabr", "shafqat", "sadoqat", "marhamat" kabi tushunchalar ustun bo'lib, jamiyatdagi ma'naviy bardosh va insonparvarlik an'analariga urg'u beradi.

Konseptning mazmuniy tarkibi barcha asarlarda uchta asosiy komponent orqali amalga oshiriladi. Kognitiv komponent "o'zgachalik"ni anglash va tushunishda namoyon bo'ladi. Ingliz tilida bu madaniy farqlarni tushunish (Abdulrazak Gurnah), ijtimoiy adolatsizlikni idrok etish (Jon Steynbek), irqiy cheklovlarni anglash (Mayya Endjelou) orqali ifodalansa, o'zbek tilida millatlararo muloqot (Nuridddin Ismoilov), avlodlararo munosabat (Tohir Malik), hayot qonuniyatlarini anglash (Ulug'bek Hamdam) orqali voqelanadi. Aksiologik komponent insonparvarlik, empatiya va axloqiy qadriyatlarda o'z aksini topadi. Ingliz adabiyotida individual huquqlar, tenglik va plyuralizm ustun bo'lsa, o'zbek adabiyotida jamoaviy garmoniya, milliy ma'naviy an'analar va diniy-axloqiy qadriyatlar afzallik qiladi. Pragmatik komponent muloqot strategiyasi va moslashuv usullarida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida faol qarshilik, institusional o'zgarishlarga intilish va ijtimoiy

CamScanner yordamida skanerlangan


faollik kuzatilsa, o‘zbek tilida diplomatiya, sabr-toqat va an’analarni saqlagan holda moslashuv orqali hal qilish usullari ustunlik qiladi.

Ingliz adabiyotidagi asarlarda tolerantlik turli ijtimoiy-siyosiy kontekstlarda namoyon bo‘ladi. Abdulrazak Gurnahning “By the Sea” romanida postkolonial migratsiya manzarasida madaniy o‘zgachalikni qabul qilish va shaxsiy travmalarga chidam masalalari ko‘tariladi. Saleh Omarning jimligi (“*I kept quiet, matching my breathing to his*”) tolerantlikning neverbal strategiya sifatida namoyon bo‘lishini, ziddiyatdan qochish va mavqeini saqlash usulini ifodalaydi. Jon Steynbekning “The Grapes of Wrath” romanida tolerantlik Buyuk depressiya davrida iqtisodiy inqiroz va sinfiy kurash sharoitida jamoaviy solidarlik orqali tasvirlanadi. Roz Sharonning o‘layotgan erkakni emizishi romanning kulminatsion epizodi bo‘lib, tolerantlikning barcha komponentlarini birlashtirgan ramziy harakat sifatida namoyon bo‘ladi. Mayya Endjelouning “I Know Why the Caged Bird Sings” asarida tolerantlik irqiy diskriminatsiya sharoitida yashab qolish strategiyasi sifatida voqelanadi. Bitiruv kechasida negr gimnini kuylash jamoaviy tolerantlikni, Mommaning “oq axlat” oldidagi xulqi individual chidamlilikni ifodalaydi.

O‘zbek adabiyotidagi asarlarda tolerantlik milliy ma’naviy qadriyatlar prizmasi orqali yoritiladi. Nuriddin Ismoilovning “O‘limga mahkum qilinganlar” romanida konsept urush va ekstremal holatlar, internasional aloqalar kontekstida harbiy intizom va millatlararo hamjihatlik orqali ochiladi. General oldida qasamyod aytish epizodi jamoaviy itoatkorlik orqali ziddiyatdan qochish strategiyasini namoyish etadi. Tohir Malikning “Shaytanat” romanida tolerantlik va notolerantlik qarama-qarshiligi kriminal muhit manzarasida keskin namoyon bo‘ladi. Bolalik travmasi (*“Endi qotillarni kechirish mutlaqo mumkin emas!”*) notolerantlikning emotsional asosini ifodalasa, diniy-ma’naviy qadriyatlar (“*Yaxshilik kalitlarini Olloh ularning qo‘llariga tutgan*”) tolerantlikning aksiologik komponentini mustahkamlaydi. Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida tolerantlik muvozanat va ichki garmoniya g‘oyalari atrofida markazlashadi. Muhammadjon akaning bog‘ni jamoaga vasiyat qilishi (”Bu bog‘ sizlar uchun... o‘z hayotlaringizga... qarab, baholab oladigan joy bo‘lsin”) tolerantlikni moddiy mulkdan ma’naviy ramzga aylantirish jarayonini ifodalaydi.

Ingliz va o‘zbek tillarida tolerantlik konseptining chog‘ishtirma tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu konsept universal insoniy qadriyat bo‘lib, turli madaniy kontekstlarda o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi. Ikkala tilda ham konsept bir xil struktural asosga ega: kognitiv, aksiologik va pragmatik komponentlar, personajlar evolyusiyasi orqali konsept rivojlanishi, konflikt va kelishuv dialektikasi (1-rasmga qarang). Biroq, tolerantlikning funksional yo‘nalishlarida sezilarli farqlar kuzatiladi. Ingliz tilida tolerantlik asosan ijtimoiy o‘zgarishlar vositasi, tengsizlikka qarshi kurash mexanizmi va demokratik jamiyat qurish asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Personajlar tolerantlik orqali o‘z huquqlarini anglash, qadr-qimmatini himoya qilish va ijtimoiy faollikka o‘tishadi. O‘zbek tilida esa tolerantlik jamiyatda tinchlik va garmoniyani saqlash, milliy birdamlikni mustahkamlash va ma’naviy kamolot vositasi sifatida ko‘rsatiladi. Qahramonlar tolerantlik orqali ichki tinchlikka erishish, ma’naviy muvozanatni topish va jamoat bilan garmoniyaga kelishadi.

Tolerantlik strategiyalarida ham keskin farqlar mavjud. Ingliz tilida faol qarshilik, institusional o‘zgarishlarga intilish va ijtimoiy harakatlar ustunlik qilsa, o‘zbek tilida sabr-toqat, muloqotda diplomatiya va an’analarni saqlagan holda moslashuv afzallik qiladi. Tolerantlikning turlari bo‘yicha ham o‘ziga xoslik kuzatiladi. Ingliz tilida majburiy tolerantlikdan ixtiyoriyga, passivdan aktivga, shaxsiydan ijtimoiy tolerantlikka o‘tish jarayoni namoyon bo‘lsa, o‘zbek tilida an’anaviy va zamonaviy tolerantlik sintezi, oilaviydan jamoaviyga, mahalliydan milliy tolerantlikka kengayish kuzatildi.



1-rasm. Ingliz va o‘zbek adabiyotida tolerantlik konseptining mazmuniy tarkibidagi o‘xshashlik va o‘ziga xoslik

CamScanner yordamida skanerlangan

Konseptning leksik reprezentatsiyasi ham madaniy farqlarni aks ettiradi. Ingliz tilida *tolerance, acceptance, empathy* kabi leksemalar orqali ijtimoiy adolat, individual huquqlar va plyuralizmga urg'u bilan ifodalansa, o'zbek tilida *bag'rikenglik, sabr, muruvvat* kabi so'zlar orqali ma'naviy hamohanglik, jamoaviy birdamlik va diniy-axloqiy qadriyatlar ustuvorligi aniqlandi.

Shunday qilib, tolerantlik konseptining leksik-semantik reprezentatsiyasi ikkala tilda ham o'ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega. Ingliz tilida konsept asosan faol semantikaga ega leksemalar (*accept, fight, resist*) orqali verballashib, sintaktik jihatdan imperativ va modal konstruksiyalar bilan kuchaytiriladi. O'zbek tilida esa passiv va refleksiv semantikaga ega birliklar (*sabr, chidash, toqat*) ustunlik qilib, diskursiv jihatdan sifat bildiruvchi leksemalar va metaforik ifodalar orqali konseptuallashadi.

Dissertatsiyaning **"Ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda tolerantlik konseptining milliy-madaniy xususiyatlari"** deb nomlangan uchinchi bobida tolerantlik tushunchasining milliy qadriyat sifatida namoyon bo'lishi va uning adabiy matnlarda turlicha ifodalanishi tahlil etilgan, shuningdek, ikki xalq adabiyotida tolerantlikning umuminsoniy qimmat sifatidagi umumiy belgilarini aniqlash bilan birga, milliy-madaniy xususiyatlarni ifoda etuvchi farqli jihatlar ham yoritilgan.

Ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda tolerantlik milliy qadriyat sifatida turli lingvistik vositalar, madaniy simvollar va etnopsixologik mexanizmlar orqali voqelanadi. Har bir xalqning o'ziga xos tarixiy tajribasi, diniy e'tiqodlari, ijtimoiy institutlari va dunyoqarashi tolerantlik konseptining milliy-madaniy xususiyatini belgilaydi.

Ingliz adabiyotida tolerantlik konsepti individual erkinlik, demokratik qadriyatlar va plyuralizm prinsiplari asosida shakllangan. Abdulrazak Gurnahning "By the Sea" romanida diniy tolerantlik islomiy terminologiya va polilingvistik muloqot orqali ifodalanadi. Qahramonning qamoqxonada aytgan duosi "*Blessing and peace upon you, o beloved of God, Blessing and peace upon you, o prophet of God*" (p. 59-60) arab tilidagi "*Ya Latif*" duosining inglizcha tarjimasi bo'lib, islomiy madaniyatning birlashtiruvchi kuchini namoyon qiladi. Romanda polilingvistik tolerantlik "*They all spoke in loud voices mixing English and Arabic and Kiswahili in polyglot good humour*" (p. 21) misolida ko'rsatilganidek, uchta tilning tabiiy aralashuvi Sharqiy Afrika sahili hududlarining tarixiy tijorat aloqalari natijasida shakllangan til tolerantligining amaliy namunasidir.

Jon Steynbekning "The Grapes of Wrath" romanida tolerantlik amerika xalqining milliy qadriyatlari, diniy e'tiqodi va ijtimoiy solidarlik mexanizmlari orqali ochib berilgan. Diniy tolerantlik amerika protestant an'analari orqali ifodalanadi: "*Blessed is he whose transgression is forgiven, whose sin is covered*" (p. 248) – Psalm 32:1 dan olingan ibora amerika protestant madaniyatida kechirim va tolerantlikning diniy negizini tashkil etadi. Amerika janubi kulinar an'analari orqali ijtimoiy solidarlik "*biscuit and gravy*" taomida o'z aksini topgan – bu qashshoqlik sharoitida ham mehmondo'stlikni ta'minlash ramzi hisoblanadi.

Mayya Endjelouning "I Know Why the Caged Bird Sings" romanida tolerantlik afro-amerika xalqining milliy qadriyatlari va ijtimoiy barqarorlik mexanizmlari orqali namoyon bo'ladi. Diniy tolerantlik afro-amerika an'analari orqali ochib

